

## PEDAGOGIK KOMPETENTLIKNING BO'LAJAK OFITSERLAR FAOLIYATIDA TUTGAN O'RNI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20706009>

**Xaydarov Zafar Abdixakimovich**

*Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti  
MHO fakulteti boshlig'i o'rinbosari, dotsent*

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada bo'lajak ofitserlarning psixologik va pedagogik kompetentligini rivojlantirish yo'llari, shuningdek, kasbiy kompetentlikni takomillashtirish, ularga qo'yilgan talablar to'g'risida fikr yuritilgan.

### **Kalit so'zlar**

kompetentlik, pedagogik kompetentlik, pedagogik kompetentlik komponentlari, kasbiy kompetentlik, kasbiy kompetentlik darajalari, kasbiy kompetentlik sifatleri.

### **Аннотация**

в данной статье рассматриваются требования и пути развития профессиональной и психико-педагогической компетентности будущих офицеров, качества педагогической компетенции и степени педагогической компетенции.

### **Ключевые слова**

компетентность, педагогическая компетентность, компоненты педагогической компетенции, профессиональная компетентность, степени профессиональной компетентности, качества профессиональной компетентности.

Qurolli kuchlarni rivojlantirishda, ular oldida turgan vazifalarni hal qilishda ofitserlar korpusining alohida o'rni bor. Armiyaning jangovar tayyorgarligi va jangovar qobiliyati, eng muhimi ofitserlarning tayyorgarlik darajasiga, qo'l ostidagi harbiy xizmatchilarni boshqarish, harbiy xizmatchilarni tayyorlash va o'qitish qobiliyatiga bog'liq.

Ofitser shaxsiga qo'yiladigan zamonaviy talablar sifatida quyidagilarni ta'kidlash joiz: vatanparvarlik, harbiy qasamyodga sodiqlik, o'z harbiy burchini mardlik va professional tarzda bajarishga tayyorlik; intizom, tirishqoqlik, mashq qilish va jismoniy barkamollik; professionallik; buyruq ijrosi va tashkilotchilik qobiliyati; yuksak sharaf va o'z-o'zini hurmat qilish hissi; insonparvarlik; yuksak

axloqiy va pedagogik madaniyat. Ofitser o'z vazifalarini bajarishi uchun yuksak ma'naviy-axloqiy salohiyatga va professional darajadagi kompetensiyaga ega inson bo'lishi juda muhim, unda sha'n va halollik, sadoqat, halollik, kasbiy burch, e'tiqodlilik, namunali qiyofa kabi psixologik portretga ega bo'lishi lozim. Ushbu fazilatlar ofitserga obro'li, qo'l ostidagilarga namuna bo'lishga, harbiy jamoaning hayotiga samarali ta'sir ko'rsatishga imkon beradi.

Bo'lajak ofitser psixologik barqarorlikka, tanqidiy stressli vaziyatlarda xatti-harakatlarini boshqara oladigan va ixtiyoriy ravishda o'z-o'zini tartibga solish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Bo'lajak ofitserning psixologik va pedagogik kompetensiyalariga quyidagilar kiradi:

- ofitserda mavhum-mantiqiy fikrlash, nostandart jangovar sharoitlarda qaror qabul qilish va ularni amalga oshirishni tashkil qilish qobiliyati;

- turli toifadagi harbiy xizmatchilar o'rtasida do'stlikni mustahkamlash, ularning yoshi, milliy an'ana va urf-odatlarini hurmat qilish qobiliyati;

- ishdagi muhim vazifalarni oldindan ko'rish, maqsadlarni aniq belgilash va ularga erishishda qat'iyatlilik, ijrochilarni tanlashni amalga oshirish va ular o'rtasida mas'uliyatni oqilona taqsimlash, qo'yilgan vazifalarni oxiriga yetkazish, bo'ysunuvchilar tomonidan buyruqlarning bajarilishini nazorat qilish qobiliyati;

- doimiy ravishda o'z-o'zini takomillashtirishga intilish, kasbiy va shaxsiy o'zini rivojlantirish, yangi bilim, ko'nikma va malakalarni egallash amaliy tajribalarni muntazam oshirib borish;

- halollik, to'g'riso'z, va odob, so'z va amal birligiga qat'iy amal qilib yashash.

Xo'sh, kompetentlik nima? Pedagogik kompetentlik va uning asosiy komponentlari, shuningdek, kasbiy kompetentlik negizida qanday sifatlar aks etadi? Ayni o'rinda shu va shunga yondosh g'oyalar yuzasidan so'z yuritiladi.

Kompetentlik (lot. competens) – faoliyat talablariga mos kelish, yaroqlilik, layoqatlilik. Kompetentlik tushunchasi o'z mazmuni va mohiyatiga ko'ra, asosan, insonning o'z kasbiy faoliyatini qanchalik muvaffaqiyatli amalga oshira olishini belgilar ekan, kasbiy kompetentlik va uning tarkibi to'g'risida so'z yuritish o'rinli bo'ladi. Har bir kasbiy faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari, vazifalari, talablari, maqsadlaridan kelib chiqib, shu faoliyat bilan shug'ullanuvchi mutaxassislarining bilimi, malaka va ko'nikmalariga, tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar kasbiy kompetentlikning mazmunini va tarkibini belgilaydi.

Pedagogik kompetentlik deganda muayyan tarixiy davrda qabul qilingan meyorlar, standartlar va talablarga muvofiq pedagogik funksiyalarni bajarishga tayyorlik va qodirlikni belgilovchi professional-shaxsiy xususiyatlar tushuniladi. Ko'pchilik pedagogik adabiyotlarda keltirilgan professional-pedagogik

kompetentlikning mazmuni to'g'risidagi fikrlarni umumlashtirgan holda bo'lajak ofitserlarda psixologik va pedagogik kompetentlikning asosiy komponentlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin bo'ladi:

- harbiy-kasbiy va pedagogik yo'nalganlik;
- boy nazariy va amaliy bilim ko'nikmaga egaligi;
- harbiy-pedagogik jarayonni tizimli idrok etish;
- harbiy-kasbiy va pedagogik-psixologik bilimlarni o'zlashtirganlik va amaliyotga tatbiq eta olish;
- nutqning rivojlanganligi;
- samarali muloqotga kirisha olishi;
- pedagogik va axborot texnologiyalarini o'zlashtirganligi;
- kreativlik va boshqalar.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, kasbiy kompetentlikka quyidagicha ta'rif berish mumkin bo'ladi:

**Kasbiy kompetentlik** – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi.

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi.

Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo'ladi: - murakkab jarayonlarda; - noaniq vazifalarni bajarishda; - bir-biriga zid ma'lumotlardan foydalanishda; - kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo'la olishda Kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis: - o'z bilimlarini izchil boyitib boradi; - yangi axborotlarni o'zlashtiradi; - davr talablarini chuqur anglaydi; - yangi bilimlarni izlab topadi; - ularni qayta ishlaydi va o'z amaliy faoliyatida samarali qo'llaydi.

Ayrim pedagogik adabiyotlarda ofitserning faoliyati tarkiban didaktik, pedagogik, metodik, loyihaviy va ilmiy-tadqiqotchilik komponentlaridan tashkil topishi ko'rsatilgan. Ushbu komponentlarning mazmuni quyidagicha yoritiladi:

- didaktik komponent: ofitserning sohasidagi kompetentligi, o'quv materialini bilishi; nazariy va amaliy didaktik vazifalarni hal qilish uchun eng maqbul sharoitlar yarata olishi va h.k.;
- pedagogik komponent: ta'lim jarayonida tarbiyalash va rivojlantirish faoliyatini amalga oshira olish; bo'lajak mutaxassislarda kasbiy muhim shaxsiy

sifatlarni shakllantirish maqsadida ta'lim oluvchilar bilan birgalikdagi faoliyatni tashkil eta olish va b.;

- metodik komponent: mavjud metodikalarni hamda ta'lim texnologiyalarini bilish va takomillashtirish, yangilarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq qilish; ta'lim jarayonini o'quv-metodik hujjatlar bilan ta'minlash; pedagogik mahoratni oshirish; ta'lim oluvchilarning auditoriya va mustaqil ish malakalarini takomillashtirish; o'quv ishlarining barcha shakllari, turlari va metodlarini yaxshilash;

- loyihaviy komponent: ta'lim oluvchilar o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish bo'yicha ta'lim jarayonini loyihalash, modelini yaratish, amalga oshirish texnologiyalarini tanlash va ishlab chiqish;

- ilmiy-tadqiqotchilik komponenti: ilmiy tafakkurini rivojlantirish; o'quv mashg'ulotini eng so'nggi tadqiqotlar natijalari bilan boyitish.

Yana shular qatoriga harbiy xizmat komponentini kiritish maqsadga muvofiq.

Bo'lajak ofitserning harbiy xizmat komponenti umumharbiy va harbiy ixtisosligi bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini muntazam takomillashtirib borish; harbiy xizmat tajribasini pedagogik jarayonga samarali tatbiq eta olish; ta'lim jarayoni bilan harbiy-ilmiy va ilmiy-pedagogik tadqiqotlarni uyg'unlashtirib olib borish; bo'lajak harbiy mutaxassis sifatida xizmat faoliyatida zarur bo'lgan nazariy bilimlar va amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurollantirib borish va shu kabilarni o'z ichiga oladi.

Ko'pchilik adabiyotlarda kompetensiya tushunchasiga shaxsning o'z faoliyati bilan bog'liq turli vazifalarni bajarish uchun zarur sifatlar, qobiliyatlar, bilimlar, ko'nikmalar va malakalar birligi sifatida ta'rif beriladi. Ta'kidlash lozimki, turli faoliyatlarni amalga oshirish uchun kerakli umumiy kompetensiyalar bilan birga (masalan, ijtimoiy funksiyalarni bilish va bajarish, bilim, ko'nikma va malakalarini kasbiy faoliyatga tatbiq etish, umumiy va xususiy holatlarda samarali jamoaviy va mustaqil faoliyat yuritish qobiliyatining rivojlanganligi va shu kabilar) har bir mutaxassislik yo'nalishining xususiyatlari va ixtisoslik talablaridan kelib chiqib, shaxsda o'ziga xos asosiy kasbiy muhim kompetensiyalarning mavjud bo'lishi nazarda tutilishini ta'kidlash lozim.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, bo'lajak ofitserda psixologik va pedagogik kompetentlik va kasbiy mahorat uyg'unligi yetuk ofitser bo'lib yetishishidan darak beradi.

Bugungi kunda zamonaviy ofitserning professional tayyorgarligiga ko'plab talablar qo'yilayotgan bir vaqtda kompetentlik va mahorat masalasi katta ahamiyat kasb etadi. Xalqimizda: Ustoz ko'rgan shogird, - degan naql bor. Ustozlar qanchalik bilimli bo'lsa, demak shogirdlari ham kelgusida ulardan qolishmaydi. Shu bois,

harbiy xizmatchilarda yuqori jangovar shaylik, tayyorgarlik va mustahkam intizomni qaror toptirishda ofitserning pedagogik kompetentligi va mahorati asosiy o'rin tutadi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

#### FOYDALANILGAN MANBALAR:

1. Satib-Aldiyev A.A. Ofitser-o'qituvchining pedagogik mahorati./ Darslik. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi, 2019. – 264 b.
2. Muslimov N.A. Usmonboyeva M., Sayfurov D., To'rayev A. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. O'quv qo'llanma. -T.: Sano-standart, 2015. -130 b.
3. Ismailova Z.K., Mustafoyeva D.A. Malaka oshirish tizimida o'qituvchilarining pedagogik kompetentligini oshirish. maxsus Dastur. T.: Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti, 2018. – 21b.
4. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari / Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. – Toshkent, 2015. – 120 b.
5. Satib-Aldiyev A.A. Ofitser-o'qituvchining pedagogik mahorati. Darslik. – Toshkent: O'R Qurolli Kuchlari Akademiyasi, 2019. – 264 b.
6. Satib-Aldiyev A.A. Harbiy pedagogning kasbiy kompetentligi. Harbiy ta'lim va fanda innovatsiyalar jurnali. 2018 y, 2-son. – 3-8-b.